
Dehqon bozorida arzonlashtirilgan oziq-ovqatlar yarmarkasi faoliyat olib bormoqda

Har yili Yangi yil bayrami oldidan bozorlarda arzonlashtirilgan oziq-ovqatlar yarmarkalari tashkil etiladi. Bu yil ham tumanimiz aholisi uchun qulaylik yaratish maqsadida "Qumtepa" mahallasi hududida joylashgan "Dehqon bozori" MCHJda arzonlashtirilgan oziq-ovqatlar yarmarkasi faoliyat olib bormoqda.

Yarmarkada meva-sabzavotlar, un, yog', go'sht, tuxum, guruch va bayram dasturxoniga tortiladigan barcha mahsulotlar bozor narxidan arzon narxlarda sotilmoqda.

Yarmarkaga kelib, qulay narxlarda yangi yil bayrami dasturxonini uchun turli oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilishingiz mumkin.

2024-12-14 15:34:51